

РЕВМАТИЗМ КАСАЛЛИГИДА ОSHQOZON СЕКРЕТСИЯСИНИНГ О'ZGARISHI

Vafoeva Nigora Abrorovna

Ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrası assistenti

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Samarqand, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda revmatizm bilan og'riqan bemorlarda oshqozon sekretsiasining buzilishlari va ularning kasallik kechishiga ta'siri o'rganildi. Uch yil davomida o'tkazilgan kuzatuvlar natijasida revmatik kasalliklar bilan kasallangan 100 nafar bemor (60 nafar ayol va 40 nafar erkak, yoshi 30 gacha) tadqiqotga jalb qilindi. Bemorlarga har kuni Riss-Petrov usuli bo'yicha tayyorlangan karam shirasi qaynatmasi berildi. Fraksionaviy tekshirish usuli yordamida oshqozon sekretsiası, kislotaliligi, pepsin faolligi, gastromukoprotein darajasi, evakuator va ekskretor funksiyalari baholandi. Tahlillar natijalariga ko'ra, bemorlarning 60% da patologik sekretsia o'zgarishlari aniqlandi, shundan 35% da gipersekretsia, 25% da giposekretsia kuzatildi. Kislotalilik ko'rsatkichlari 77% bemorda o'zgargan (59% da oshgan, 18% da pasaygan). Gastromukoprotein darajasi 67% hollarda o'zgargan bo'lib, 38% da ortishi qayd etilgan. Oshqozonning evakuator funksiyasi 74% bemorda buzilgan (34% da tezlashgan, 40% da sekinlashgan). Bundan tashqari, 44% bemorlarda dispeptik shikoyatlar (ko'ngil aynishi va boshqalar) kuzatilgan, 1–2 darajali qon aylanishining buzilishi aniqlangan.

Kalit so'zlar: revmatizm, oshqozon sekretsiası buzilishlari, gipersekretsia, giposekretsia, gastromukoprotein, Riss-Petrov usuli, karam shirasi, qon aylanishining buzilishi, dispepsiya.

НАРУШЕНИЯ ЖЕЛУДОЧНОЙ СЕКРЕЦИИ ПРИ РЕВМАТИЗМЕ.

Вафоева Нигора Аброровна

ассистент кафедры пропедевтики внутренних болезней

Аннотация: В данной статье изучается влияние желудочной секреции на ревматические заболевания. В исследование включены данные за 3 года. В исследование были включены 60 женщин и 40 мужчин с ревматическими заболеваниями, всего 100 пациентов в возрасте до 30 лет. Для исследования ежедневно давали отвар, приготовленный из капустного сока по методу Рисс-Петрова. По результатам анализов, повысилась гиперсекреция и гастромукопротеин. Наблюдалось нарушение кровообращения на 1-2 степени и тошнота.

Ключевые слова: Ревматизм, желудок, пациент, метод Рисс-Петрова, гиперсекреция, гастромукопротеин, нарушения кровообращения, гипосекреция.

GASTRIC SECRETION DISORDERS IN RHEUMATISM

Vafoeva Nigora Abrorovna

Assistant, Department of Propaedeutics of Internal Diseases

Samarkand State Medical University

Samarkand, Uzbekistan

Abstract: This article examines the impact of gastric secretion on rheumatic diseases. The study included data spanning three years. Sixty women and 40 men with rheumatic diseases were included, for a total of 100 patients under 30 years of age. For the study, subjects were given a cabbage juice decoction daily using the Riess-Petrov method. Test results revealed increased hypersecretion and gastromucoprotein. Circulatory impairment of grades 1-2 and nausea were observed.

Keywords: Rheumatism, stomach, patient, Riess-Petrov method, hypersecretion, gastromucoprotein, circulatory impairment, hyposecretion.

Kirish. Zamonaviy bemorning eng xarakterli belgisi — polimorbidlikdir. Klinik amaliyotda sintropiyalar (turli kasalliklarning bir organizmda qonuniyatli

birikishi), distropiyalar (turli kasalliklarning bir organizmda qonuniyatli ravishda kam uchraydigan yoki imkonsiz birikishi) va interferensiya (bir kasallikning ikkinchisiga ta'siri) ning xususiy namoyon bo'lishlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Sintropiya mavjud bo'lganda amaliy qiziqish ikki kasallikning aniq xususiyatlari va rivojlanishining asosiy tendensiyalarini o'rganishdan iborat: bir vaqtda rivojlanishi, ikkinchi kasallikning birinchisiga nisbatan ketma-ket rivojlanishi kuzatiladi [1,2,3]. Nozologik shakllarning patomorfizi o'zgarishi fonida bu jarayonni aniqlash qiyinlashmoqda. Oshqozonning saraton oldi kasalliklarini shakllantirishda oshqozon sekretsiya funktsiyasi holati muhim rol o'ynaydi. Bunda uning buzilishlari ko'pincha morfologik o'zgarishlar, ya'ni shilliq qavatning progressiv atrofiyasi, asosiy oshqozon bezlarining shikastlanishi va oshqozon shilliq qavatida disregenerator jarayonlar bilan bog'liq bo'ladi [4,5]. Yallig'lanish va distrofik jarayonga ham parietal hujayralar, ham asosiy hujayralar jalb qilinishi mumkin. Bu esa xlorid kislota va pepsinogenlar ajralishining kamayishiga olib keladi. Atrofiya jarayonida bu ixtisoslashgan hujayralar mukotsitlar bilan almashtiriladi. So'nggi yillarda oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak shilliq qavatining eroziya va yara shikastlanishlarining rivojlanishi va qaytalanishida oshqozon-ichak trakti mikromuxitining o'zgarishlariga muhim ahamiyat berilmoqda. Bu o'zgarishlar shilliq qavtni mikrofloraning haddan tashqari ko'payishi va uning agressiv xususiyatlarining kuchayishi bilan tavsiflanadi [6,7]. Revmatizmda ovqat hazm qilish a'zolarining funksional holati yetarli darajada o'rganilmagan. Ma'lumki, revmatizm bilan og'rikan bemorlar ko'pincha ovqat hazm qilish tizimi tomonidan shikoyatlar bildiradilar.

Tadqiqot maqsadi. Ushbu ishning maqsadi revmatizm bilan og'rikan bemorlarda oshqozonning ayrim funktsiyalari holatini o'rganishdan iborat. Oshqozon holatini baholashda sekretsiya, kislotalilik, pepsin, shilimshiq, xloridlar, gastromukoprotein, oshqozon shirasi oqsillari, sinov nonushtasining evakuatsiya tezligi va neytral ekskretor funktsiya ma'lumotlari hisobga olindi.

Tadqiqot materiallari va usullari. Tadqiqotlar fraksionaviy usulda, sinov nonushtasi sifatida Riss-Petrova usuli bo'yicha tayyorlangan karam qaynatmasi yordamida o'tkazildi. Kuzatuv ostida 100 nafar revmatizm bilan og'riqan bemor bo'ldi. Ulardan 60 nafari ayollar, 40 nafari erkaklar olindi. Bemorlarning ko'pchiligi 30 yoshdan kichikni tashkil qildi. Tekshirilganlarning 72% ni revmatizm bilan 3 yildan ortiq vaqt davomida kasallangan bemorlar olindi.

Tadqiqot natijalari. Revmatizmning faol fazasi 76% bemorlarda (15% bemorlarda — birinchi revmoatakada) qayd etildi, nofaol faza — 24% ni tashkil qildi. Yurak klapnlari nuqsonlari 78% bemorlarda aniqlandi. 46% bemorlarda 1–2 darajali qon aylanishining buzilishi kuzatildi. 44% bemorlar dispeptik shikoyatlar bildirgan.

Ko'rinib turibdiki, sekretsianing patologik o'zgarishlari 60% bemorlarda aniqlandi (35% da — gipersekretsiya, 25% da — giposekretsiya); kislotalilik darajasi — 77% da o'zgargan. Kislotalik oshgan — 59% da, kislotalik pasaygan — 18% da; parchalash kuchi — 60% da o'zgargan. Shundan oshgan — 41% da, pasaygan — 18% da; gastromukoprotein — 67% da o'zgarish kuzatilgan. Oshgan holat — 38%, pasaygan holati — 29% da kuzatiladi; evakuatsiya funktsiya — 74% da bizilgan. Tezlashgan ko'rsatkich — 34% da, sekinlashgan — 40% bemorlarda); ekskretor funktsiya — 75% bemorlarda buzilgan. 47 ta bemorda oshqozon shirasida shilimshiqning sezilarli miqdori mavjud bo'lgan. Oshqozon shirasi oqsillari tomonidan ham sezilarli o'zgarishlar kuzatildi. Fol'gard bo'yicha shira xloridlari o'rtacha ko'rsatkichi 311 mg% ni tashkil etdi. Naxorda kislotalilikning oshgan raqamlari 18% da, pepsin — 31% da, gastromukoprotein — 40% bemorlarda qayd etildi. Naxorda gipersekretsiya kuzatilmadi. Xloridlarning o'rtacha ko'rsatkichi 291 mg% ni tashkil etdi. Birlamchi revmatizmida bemorlarda ko'pincha gipersekretsiya va sekinlashgan evakuatsiya kuzatilgan bo'lsa, qon aylanishi yetishmovchiligida giposekretsiya va tezlashgan evakuatsiya aniqlandi.

Xulosa. Revmatizmida oshqozonning asosiy funktsiyalari tomonidan sezilarli siljishlar kuzatiladi. Buni klinik amaliyotda hisobga olish lozim. Kasallikning

dastlabki bosqichlarida (faol faza, kasallik boshlanishi) ko‘pincha xlorid kislotasi sekretsiasining oshgan yoki normal holati (gipersekretsiya yoki normoatsid holat) qayd etiladi. Kasallik uzoq davom etgan hollarda, ayniqsa cho‘ziluvchan va qaytalanuvchi shakllarda sekretsiya funksiyasining pasayishi — gipoatsid yoki anatsid holat tez-tez kuzatildi. Bu esa aniq sekretsiya yetishmovchiligi bilan kechadigan surunkali atrofik gastrit shaklida namoyon bo‘ladi.

Olingan natijalar revmatizmida oshqozon sekretsiasining sezilarli darajada buzilishini ko‘rsatadi va bu o‘zgarishlar kasallikning sistemali kechishida muhim rol o‘ynashi mumkin. Riss-Petrov usuli bo‘yicha karam shirasi qaynatmasidan foydalanish oshqozon sekretsiasini va gastromukoprotein darajasini oshirishga yordam bergan bo‘lib, bu revmatik bemorlarda oshqozon funksional holatini baholash va davolashda hisobga olinishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аруин Л.И. Новая международная классификация дисплазий слизистой оболочки желудка // Рос. журн. гастроэнтерологии, гепатологии, колопроктологии. 2002. - № 3. - С. 15-17.
2. Акимова, М.А. Язвенная болезнь, ассоциированная с дисплазией соединительной ткани: клиника, течение, лечебная тактика / М.А. Акимова, Г.И. Нечаева, И.А.Викторова // Сибирский мед. журнал. - 2007. С. 56-59.
3. Гаффаров Х. Х., Вафоева Н. А. Значение систолической и диастолической дисфункции при циррозе печени //Universum: медицина и фармакология. – 2020. – №. 10 (72). – С. 4-6.
4. Вафоева Н. А. Особенности клинической картины хронического пиелонефрита у женщины //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 18-2 (96). – С. 92-94.
5. Маматалиев А. Р. Особенности нейростроение интразонального нервного аппарата вне печеночных желчных протоков у крыс //экономика и социум. – 2024. – №. 3-2 (118). – С. 692-695.

6. Mamataliev A. R. NEUROHISTOLOGICAL CHANGES IN THE VAGUS NERVE UNDER THE INFLUENCE OF COLCHICINE IN AN EXPERIMENT //Экономика и социум. – 2025. – №. 11-1 (138). – С. 310-312.
7. Маматалиев А. Р. НАРУШЕНИЕ ИННЕРВАЦИИ И МУТАЦИОННЫЙ ПРОЦЕСС В ТКАНИ //Экономика и социум. – 2025. – №. 4-2 (131). – С. 876-880.